



## O'ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALAR MAFKURAVIY FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

**Abduxalimova Fotima Azizjon qizi**

O'zDJTU, xalqaro jurnalistika fakulteti,  
ST\_2401 guruhi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20638483>

### **Annotatsiya.**

Siyosiy partiyalar o'zining siyosiy faolligini oshirgan davrdan boshlab asosiy g'oya va mafkuralar yetakchi o'rin egallaydi. Mamlakatimizda ham siyosiy partiyalarning mafkuraviy faoliyati bevosita uning siyosiy maydondagi o'rnini belgilab beradi. Tadqiqot davomida asosiy mafkuraviy yo'nalishlar (liberalizm, konservatizm, sotsializm) qiyosiy o'rganilib, globallashuv sharoitida ularning davlatimizdagi siyosiy jarayonlardagi o'rni yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** siyosiy mafkura, siyosiy partiya, liberalizm, konservatizm, sotsial demokratiya, siyosiy pluralizm, demokratik taraqqiyot.

Zamonaviy siyosat maydonida siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatida muhim institut sanaladi. Shuning uchun ham O'zbekiston hukumati partiyalar faoliyatiga ulkan imkoniyatlar va imtiyozlar yaratmoqda. Ularning mafkurasi haqida gap ketganda esa eng avvalo bosib o'tilgan tajriba va bugungi dunyo diqqat markazida bo'lgan mafkuraviy plyuralizmga to'xtalib o'tishimiz lozim. Tarix sahifalaridan xulosa qilinganda, O'zbekistonda ham mafkuraviy xilma – hillik asosida siyosiy partiyalarning faoliyat yuritishi turli normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma –hilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas"[2] deb belgilab berilgan. Shunday ekan, Siyosiy partiyalar, faqatgina, ijtimoiy qatlam hamda elektorat manfaatidan kelib chiqqan holda muayyan mafkurani targ'ib qiluvchi va unga tayanuvchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

### **Asosiy qism**

O'zbekiston partiyaviylik tizimi ko'p partiyalikka asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "siyosiy ko'ppartiyaviylikni mustahkamlash, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini oshirish, hokimiyatning vakillik organlari faoliyati samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi"[4]. Hozirgi davrda hukumatda beshta partiya faoliyat yuritadi va ularning har biri o'z g'oya va mafkuralarni ilgarib surib, o'z dasturlarini namoyish etadi. Mazkur mafkura va dasturlar aholining ma'lum bir qatlami, qismi manfaatlariga yo'naltirilgan bo'ladi. Siyosiy






partiyalarning hokimiyatga erishishni maqsad qilganligi aynan mana shu aholi qatlami manfaatlarini ro'yobi bilan bog'liq hisoblanadi.

Ma'lumki, "mafkura" so'zi –(arabcha qarash, fikr) jamiyatdagi muayyan siyosiy , huquqiy, axloqiy , diniy, ilmiy, falsafiy fikrlar, qarashlar, g'oyalar majmuidir [1]. M. Qirg'izboyev ta'kidlaganidek, "siyosiy mafkuralar siyosiy tizim shakllanishida ishtirok etib, turli ijtimoiy qatlamlar birligini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, liberalizm o'rta sinfnig, konservatizm yerga egalik qiluvchi aristokratlarning, sotsializm esa ishchilar qatlamining mafkurasini hisoblandi." [3]. Ulardan keng yoyilgan mafkura bu liberalizmdir. Liberalizm — odamlarning o'zini, xatti-harakatlarini, mulkini boshqarishda erkin degan nuqtai nazarga asoslangan [falsafiy](#), [iqtisodiy](#) va [siyosiy](#) dunyoqarash, [nazariya](#) [7]. . Uning eng yirik vakillari —Jon Lokk, Monteskye, Russo, Kant, Jefferson, Smit, Mill, Bentam va boshqalar aslini olganda inson huquqlarini hozirgidek tushunishning asosini yaratdilar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab aynan O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi liberalizm tayomillariga aslangan g'oya va tashabbuslari ilgari surib kelmoqda. Bu partiya tadbirkorlar, fermerlar va o'rta ijtimoiy qatlam g'oyalari va manfaatlarini ifodalash sifatida siyosiy maydonda yetakchi rol o'ynaydi. O'zLiDePning odatiy saylovoldi dasturida mamlakatni qudratli, erkin va farovon davlatga aylantirish g'oyasi markaziy o'rin tutadi. Partiya iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy sektor ulushini oshirish va bozor tamoyillarini joriy qilishni ustuvor hisoblaydi [5]. Bu borada partiya davlatning iqtisodiyotdagi "tartibga soluvchi" rolini saqlab qolgan holda, tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirishni asosiy vazifa deb biladi. Aynan iqtisodiy erkinlik tushunchasi O'zLiDeP mafkurasining o'zagi bo'lib, u mulkdorlar qatlamini shakllantirish orqali jamiyatda o'rta sinf vakillarining siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Ko'ppartiyaviylik tizimda keng tarqalgan yo'nalishlardan yana biri bu sotsial-demokratiya mafkurasidir. Sotsial-demokratiya lotincha "socialis" – "ommaviy", "demos" – "xalq", "kratos" – "hokimiyat" degan ma'nolarni anglatadi [1]. Bu mafkura XIX asr o'rtalarida shakllangan bo'lib, uning asosiy g'oyasi kapitalistik jamiyatni inqilobiy yo'l bilan emas, balki tinch, demokratik islohotlar orqali ijtimoiy adolat tamoyillari asosida qayta qurishdir. O'zbekistonning siyosiy partiyalari orasidan ikkita partiya sotsial-demokratlar mafkurasiga mansub: O'zXDP va «Adolat» SDP (sotsial-demokratik partiyasi) hisoblanadi. Respublikada "sotsial demokratik davlat barpo etish" asosiy ijtimoiy ideologiyasi bo'lgan Xalq demokratik partiyasi dasturidagi g'oyaviy tamoyillarda: «O'zbekiston XDP





mamlakatning tobora yuksalayotgan iqtisodiy salohiyati aholining kam ta'minlangan qatlamlari turmush darajasi va hayot sifatini oshirish uchun xizmat qilish kerak, deb hisoblaydi» [8].

Siyosiy pluralizm maydonida O'zLiDeP iqtisodiy jarayonlarda davlat ishtirokini kamaytirishga hamda sodda va adolatli soliq siyosati uchun harakat qilsa, Xalq demokratik partiyasining iqtisodiy mafkurasi so'l g'oyalarga tayanadi. Kun.uz o'z maqolalarining birida "XDP ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, turli sohalar qatorida davlatning ijtimoiy sohani tartibga soluvchi rolini kuchaytirish, narxlar bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatish, davlat ishtirokidagi qishloq xo'jaligi tashkilotlari (kolxoz va sovxozlarga o'xshash) faoliyatini yo'lga qo'yish singari vazifalarni muhim, deb hisoblaydi." deb bayon qilgan [5]. Shundan kelib chiqib, XDP "so'l partiya" sifatida yaqqol namoyon bo'ladi.

Sotsial demokratiyaning asosiy g'oyalari- adolat, tenglik, erkinlik va birodarlik. O'zbekistonda shu xil mazmundagi strategik dasturlarni ilgari suruvchi partiya bu - "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidir. Partiya elektoratining asosiy qismi bo'lgan ijtimoiy soha vakillarining ijtimoiy irodasini namoyon etishga intiladi, huquq va manfaatlarini himoya qiladi, g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, mehnat va barqaror hayot muhozafoasini ta'minlaydi. «Partiyaning asosiy maqsadi - huquqiy-demokratik davlat, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda O'zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta'minlangan ma'naviy jipslashgan jamiyatni taraqqiy toptirishda faol ishtirok etishdir» [10]. Bundan tashqari partiya o'z dasturida so'z va matbuot erkinligini ta'minlash, axborot olish va uni tarqatish huquqini to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu yo'nalishdagi vazifalar boshqa partiyalar dasturlaridagidan ko'ra yaqqolroq ifodasi topgan [5].

Konservatizm g'oyalariiga asoslangan siyosiy partiyalarni ham uchratish mumkin. Konservatizm — XVIII asrda liberalizmga muqobil mafkura sifatida paydo bo'lgan. Ushbu mafkura negizida tabiatining buzilmasligi, oila, millat, din, tabaqaviy bo'linish bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy qadriyatlarini saqlab qolish g'oyasi yotadi. K.Mannxeymning fikriga ko'ra: «agar liberal uchun kelajak — hamma narsa, o'tmish esa hech narsa bo'lsa, vaqtni konservatorlarcha idrok etish, bu barcha mavjudlik bilan o'zaro aloqadorlikning muhim isboti bo'lgan o'tmish va qadriyatlar yaratuvchi davr ahamiyatini teran anglashdir» [1].






O'zbekistonda fuqarolarning milliy ruh, dunyoqarash va patriotizmga asoslangan manfaatlarini himoyalovchi «Milliy tiklanish» DP konservativ pozitsiyaga tayanuvchi partiya hisoblanadi [9]. K.Rabbimovning fikricha, «Milliy tiklanish» DP bu o'z mafkurasi jihatidan noyobdir – bu etnik qadriyatlar va oilaning an'anaviy qadriyatlarini saqlash va oshirishga qaratilgan yagona partiyadir va shuning uchun uni konservativ deb atash mumkin [6]. Mazkur partiya mafkurasining asosi — milliy o'zlikni anglash, davlat tilining nufuzini oshirish va boy madaniy merosni asrash orqali 'milliy yuksalish'ga erishishdir. Ular jamiyat taraqqiyotini begona modellar nusxasida emas, balki xalqning ko'p asrlilik an'analari va ma'naviy poydevori asosida qurishni taklif etadilar. Globallashuv sharoitida milliy madaniyatning o'ziga xosligini saqlab qolishga urinishlari hatto ularning “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari!” kabi shiorlarida aks ettirgan. Shu yo'nalishda respublikamiz hududida “ommaviy madaniyat”ni tarqalishiga qarshi kurash olib boradi, yoshlarni buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolishlarini oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar belgilaydir hamda xotin-qizlarning gender tengligi asosida qo'llab-quvvatlanishiga hamda ularni ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi [9]. Hozirgi kunda mazkur partiya o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirishda ko'plab tadbirlarni amalga oshirmoqda.

### **Xulosa**

Xulosa qilganda hozirda O'zbekistondagi siyosiy partiyalar o'z mafkuraviy platformasiga ega bo'lib, faoliyatlarini ushbu doirada amalga oshirmoqdalar. O'zXDP va Adolat SDP sotsial-demokratik mafkuraga tayanib faoliyat yuritir ekan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini, O'zLiDeP esa liberal-demokratik mafkuraga asoslanib, mamlakatda ishbilarmonlar va tadbirkorlar qatlamini, Milliy tiklanish DP esa konservatizm mafkurasiga tayangan holda ziyolilar qatlamini o'z elektorati, deb hisoblaydi hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashini e'tirof etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Қирғизбоев, Муқимжон. Сиёсатшунослик: олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма / М.Қирғизбоев; Андижон давлат университети. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. -524 б. 455 б
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023.-80 b.
3. Qirg'izboyev M. Partologiya. – Toshkent: Akademiya, 2007. – B.86-87.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 80.





5. Siyosiy partiyalar dasturlari - turli mafkuralar va yangi g'oyalar raqobati (<https://kun.uz/83302942>)
6. Раббимов К. Политические партии Узбекистана: между правительством и обществом //Россия и мусульманский мир: Бюллетень реф.-аналит.информ./РАН ИНИОН. Центр гуманитар.науч.-информ.исслед. - М., 2007. - №6 (180). - С. 69
7. Vikipideya- "liberalizm" //URL- <https://uz.wikipedia.org/wiki/Liberalizm>
8. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining dasturi // URL - <https://xdp.uz/party-program>.
9. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi ustavi // URL - <https://mt.uz/Party-history>
10. O'zbekiston «Adolat» SDPning ustavi // URL - <https://adolat.uz/partiya-ustavi>.

